



Tadqiqot UZ

2021

ЎЗБЕКИСТОН
ОЛИМЛАРИ ВА
ЁШЛАРИНИНГ
ИННОВАЦИОН
ИЛМИЙ-АМАЛИЙ
ТАДҚИҚОТЛАРИ
МАВЗУСИДАГИ КОНФЕРЕНЦИЯ
МАТЕРИАЛЛАРИ

- » Хуқуқий тадқиқотлар
- » Фалсафа ва ҳаёт соҳасидаги қараашлар
- » Тарих саҳифаларидағи изланишлар
- » Социология ва политологиянинг жамиятимизда тутган ўрни
- » Иқтисодиётда инновацияларнинг тутган ўрни
- » Филология фанларини ривожлантириш йўлидаги тадқиқотлар
- » Педагогика ва психология соҳаларидағи инновациялар
- » Маданият ва санъат соҳаларини ривожланиши
- » Архитектура ва дизайн йўналиши ривожланиши
- » Техника ва технология соҳасидаги инновациялар
- » Физика-математика фанлари ютуқлари
- » Биомедицина ва амалиёт соҳасидаги илмий изланишлар
- » Кимё фанлари ютуқлари
- » Биология ва экология соҳасидаги инновациялар
- » Агропроцессинг ривожланиш йўналишлари
- » Геология-минерология соҳасидаги инновациялар



Crossref



CONFERENCES.UZ

31 MART
№26

**"ЎЗБЕКИСТОНДА ИЛМИЙ-АМАЛИЙ ТАДҚИҚОТЛАР"
МАВЗУСИДАГИ РЕСПУБЛИКА 26-КҮП ТАРМОҚЛИ
ИЛМИЙ МАСОФАВИЙ ОНЛАЙН КОНФЕРЕНЦИЯ
МАТЕРИАЛЛАРИ
8-ҚИСМ**

**МАТЕРИАЛЫ РЕСПУБЛИКАНСКОЙ
26-МЕЖДИСЦИПЛИНАРНОЙ ДИСТАНЦИОННОЙ
ОНЛАЙН КОНФЕРЕНЦИИ НА ТЕМУ "НАУЧНО-
ПРАКТИЧЕСКИЕ ИССЛЕДОВАНИЯ В УЗБЕКИСТАНЕ"
ЧАСТЬ-8**

**MATERIALS OF THE REPUBLICAN
26-MULTIDISCIPLINARY ONLINE DISTANCE
CONFERENCE ON "SCIENTIFIC AND PRACTICAL
RESEARCH IN UZBEKISTAN"
PART-8**

ТОШКЕНТ-2021



УУК 001 (062)
КБК 72я43

"Ўзбекистонда илмий-амалий тадқиқотлар" [Тошкент; 2021]

"Ўзбекистонда илмий-амалий тадқиқотлар" мавзусидаги республика 26-кўп тармоқли илмий масофавий онлайн конференция материаллари тўплами, 31 март 2021 йил. - Тошкент: «Tadqiqot», 2021. - 23 б.

Ушбу Республика-илмий онлайн конференция 2017-2021 йилларда Ўзбекистон Республикасини ривожлантиришнинг бешта устувор йўналишлари бўйича Ҳаракатлар стратегиясида кўзда тутилган вазифа - илмий изланиш ютуқларини амалиётга жорий этиш йўли билан фан соҳаларини ривожлантиришга бағишиланган.

Ушбу Республика илмий конференцияси таълим соҳасида меҳнат қилиб келаётган профессор - ўқитувчи ва талаба-ўқувчилар томонидан тайёрланган илмий тезислар киритилган бўлиб, унда таълим тизимида илфор замонавий ютуқлар, натижалар, муаммолар, ечимини кутаётган вазифалар ва илм-фан тараққиётининг истиқболдаги режалари таҳлил қилинган конференцияси.

Масъул мухаррир: Файзиев Шохруд Фармонович, ю.ф.д., доцент.

1.Хуқуқий тадқиқотлар йўналиши

Профессор в.б.,ю.ф.н. Юсувалиева Раҳима (Жаҳон иқтисодиёти ва дипломатия университети)

2.Фалсафа ва ҳаёт соҳасидаги қарашлар

Доцент Норматова Дилдора Эсоналиевна(Фаргона давлат университети)

3.Тарих саҳифаларидағи изланишлар

Исмаилов Ҳусанбой Маҳаммадқосим ўғли (Ўзбекистон Республикаси Вазирлар Маҳкамаси хузуридаги Таълим сифатини назорат қилиш давлат инспекцияси)

4.Социология ва политологиянинг жамиятимизда тутган ўрни

Доцент Уринбоев Хошимжон Бунатович (Наманганд мухандислик-қурилиш институти)

5.Давлат бошқаруви

PhD Шакирова Шоҳида Юсуповна (Ўзбекистон Республикаси Вазирлар Маҳкамаси хузуридаги "Оила" илмий-амалий тадқиқот маркази)

6.Журналистика

Тошбоева Барнохон Одилжоновна(Андижон давлат университети)

7.Филология фанларини ривожлантириш йўлидаги тадқиқотлар

Самигова Умида Хамидуллаевна (Тошкент вилоят халқ таълими ходимларини қайта тайёрлаш ва уларнинг малакасини ошириш худудий маркази)



8.Адабиёт

PhD Абдумажидова Дилдора Раҳматуллаевна (Тошкент Молия институти)

9.Иқтисодиётда инновацияларнинг тутган ўрни

Phd Воҳидова Меҳри Ҳасанова (Тошкент давлат шарқшунослик институти)

10.Педагогика ва психология соҳаларидағи инновациялар

Турсунназарова Эльвира Тахировна (Навоий вилоят ҳалқ таълими ходимларини қайта тайёрлаш ва уларнинг малакасини ошириш ҳудудий маркази)

11.Жисмоний тарбия ва спорт

Усмонова Дилфузахон Иброҳимовна (Жисмоний тарбия ва спорт университети)

12.Маданият ва санъат соҳаларини ривожлантириш

Тоштемиров Отабек Абидович (Фарғона политехника институти)

13.Архитектура ва дизайн йўналиши ривожланиши

Бобоҳонов Олтибод Рахмонович (Сурхандарё вилояти техника филиали)

14.Тасвирий санъат ва дизайн

Доцент Чариеv Турсун Хуваевич (Ўзбекистон давлат консерваторияси)

15.Мусиқа ва ҳаёт

Доцент Чариеv Турсун Хуваевич (Ўзбекистон давлат консерваторияси)

16.Техника ва технология соҳасидаги инновациялар

Доцент Нормирзаев Абдуқаюм Раҳимбердиевич (Наманганд мухандислик-курилиш институти)

17.Физика-математика фанлари ютуқлари

Доцент Соҳадалиев Абдурашид Мамадалиевич (Наманганд мухандислик-технология институти)

18.Биомедицина ва амалиёт соҳасидаги илмий изланишлар

Т.Ф.д., доцент Маматова Нодира Мухтаровна (Тошкент давлат стоматология институти)

19.Фармацевтика

Жалилов Фазлиддин Содиқович, фарм.ф.н., доцент, Тошкент фармацевтика институти, Дори воситаларини стандартлаштириш ва сифат менежменти кафедраси мудири

20.Ветеринария

Жалилов Фазлиддин Содиқович, фарм.ф.н., доцент, Тошкент фармацевтика институти, Дори воситаларини стандартлаштириш ва сифат менежменти кафедраси мудири

21.Кимё фанлари ютуқлари

Рахмонова Доно Қаҳхоровна (Навоий вилояти табиий фанлар методисти)



22.Биология ва экология соҳасидаги инновациялар

Йўлдошев Лазиз Толивович (Бухоро давлат университети)

23.Агропроцессинг ривожланиш йўналишлари

Доцент Сувонов Боймурод Ўралович (Тошкент ирригация ва қишлоқ хўжалигини механизациялаш мухандислари институти)

24.Геология-минерология соҳасидаги инновациялар

Phd доцент Қаҳҳоров Ўқтам Абдурахимович (Тошкент ирригация ва қишлоқ хўжалигини механизациялаш мухандислари институти)

25.География

Йўлдошев Лазиз Толивович (Бухоро давлат университети)

Тўпламга киритилган тезислардаги маълумотларнинг хаққонийлиги ва иқтибосларнинг тўғрилигига муаллифлар масъулdir.

© Муаллифлар жамоаси

© Tadqiqot.uz

PageMaker\Верстка\Саҳифаловчи: Шахрам Файзиев

Контакт редакций научных журналов. tadqiqot.uz
ООО Tadqiqot, город Ташкент,
улица Амира Темура пр.1, дом-2.
Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; Email: info@tadqiqot.uz
Тел: (+998-94) 404-0000

Editorial staff of the journals of tadqiqot.uz

Tadqiqot LLC The city of Tashkent,
Amir Temur Street pr.1, House 2.
Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; Email: info@tadqiqot.uz
Phone: (+998-94) 404-0000

АДАБИЁТ

1. Sadullayeva Zebiniso Fayzullo qizi ВЕHBUDIY QARASHLARINING MAFKURAVIY AHAMIYATI.....	7
2. Мавзуна Абдурахимова Абдумандоновна ФУНУН УЛ-БАЛОГА”ДА ҚОФИЯ НАЗАРИЯСИНинг АКС ЭТИШИ.....	8
3. Ro’zimova Oyguл Saburbayevna ABDULLA QAHHOR IJODIGA BIR NAZAR	12
4. Ro’zimova Shoira Saburovna INSONIYLIK - NAVOIY TALQINIDA.....	14
5. Shamuratova Zulkumor Shamurotovna, O’razmetova Go’zalxon Davronbekovna AHMAD YASSAVIY HIKMATLARINI YOSH AVLODGA O’RGATISHNING AHAMIYATI	16
6. Abdikarimova Nilufar Ikrom qizi G’AFUR G’ULOMNING “SHUM BOLA” QISSASIDA UCHRAGAN MAQOL, IBORA, HIKMATLI SO’ZLAR HAMDA ULAR TARKIBIDAGI YASAMA SO’ZLAR HAQIDA BA’ZI MULOHAZALAR	18
7. Shukurova Bahor Boltayevna, Barotova Madinabonu Muxiddin qizi PIRIMQUL QODIROV IJODINING BADIY VA MA’RIFIY AHAMIYATI (“YULDUZLI TUNLAR”, “AVLODLAR DOVONI” ROMANLARI ASOSIDA)	20



АДАБИЁТ

ВЕНБУДИЙ QARASHLARINING MAFKURAVIY AHAMIYATI

Sadullayeva Zebiniso Fayzullo qizi

O'zbekiston Xalqaro Islom Akademiyasi talabasi

zebiniso.sadilloeva0@mail.ru

Telefon:+998883003230

Annotatsiya: Ushbu maqolada islom dinining yirik mutaxassisi bo'lgan, Mahmudxo'ja Behbudiy yaratgan asarlaridagi tahlillar, gazetalar asoschisi sifatidagi qarashlar hamda davr tuzumi nuqatayi nazaridan olib borilgan ishlarining hozirgi kundagi dolzarb masala ekanligi aks ettirilgan.

Kalit so'zlar: ma'rifatparvarlik, millat, tuzum, sart, til masalalari .

Buyuk allomalardan biri Mahmudxo'ja Behbudiy voyaga yetgan atrof- muhit uning dunyoqarashiga hech qanday ta'sir ko'rsatmagan. Sababi, ularning oilasi, xususan, otasining roli Behbudiy tarbiyasida juda kata ahamiyat kasb etgan. Shu bois bo'lsa kerak, adabiyot, tarix, siyosat, huquq masalalarining har birida fidokorlik qilib, tarix zarvaraqlarida o'z nomining muhrlanishiga Musharraf bo'lgan shaxsdir.

Behbudiy o'z faoliyati davomida, xalqni ma'rifatga chorlagan holda bir qancha jurnallar va gazetalarning bosmadan chiqishiga yangicha atmosfera yaratma olgan shaxs hamdir. Masalan, „Oyna” jurnalida millat va uning haq huquqiga , tarixiga , til va adabiyot masalalariga, dunyo ahvoliga doir qiziqarli maqolalar va bahslar berib boradi. Jurnalning birinchi sonidayoq „Ikki emas, to'rt til lozim” degan maqola chiqib, o'zbek, tojik, arab va rus hatto biror uzoq xorij tilni bilish shart deb hisobladi. Shuningdek, adabiy tanqidga ham urg'u bergen holda millat sha'nini oyoqosti qiluvchi fikr qarashlarga zarba berib, Turkiston xalqini o'z nomi bilan atamoq lozimligini talab qilib chiqadi. Bundan anglash mumkinki, Behbudiyda vatanparvarlik tuyg'usi, o'zlikni anglash hissi juda yuqori bo'lgan. Shu bo'yicha maqolalar, asarlar yozgani ham bejiz emas, albatta. Xususan, „Sart so'zi majhuldir” (1914 . N23) maqolasida muallif shunday yozadi ; „Qabilasining ismini va yetti otasini bilmaydurg'onlarni marquq derlar”. Kommunistik jamiyatni qoralab, xalqni shohsupaga, ma'rifat va din yo'liga olib chiqmoqchi bo'lgan siymo shunday deydi: „ To'y va ta'ziyag'a sarf qilinayotgan oqchalarimizni biz , turoniylar, ilm va din yo'lig'a sarf etsak, anqarib ovro'piylardek taraqqiy ettiramiz va o'zimizda, dinimizda obro'y va rivoj topar. Yo'q, hozirgi holimizg'a davom etsak, din dunyog'a zillat va miskinatdan boshqa nasibamiz bo'lmaydi”. Xuddi shu tariqa, Behbudiy ayni chog'da yangi usuldag'i maktablarning asoschisi, targ'ibotchisi, yangi darsliklarning ilk muallifi ham bo'ladi.

Xulosa o'rnida aytish mumkinki, Mahmudxo'ja Behbudiy buyuk ma'rifatparvar yetakchi jadidchi sifatida milliy madaniyatimiz tarixidan mustahkam o'rinn egalladi. Mutafakkirning ilmiy, ijodiy, pedagogik faoliyati va me'rosi alohida ahamiyatga molik. XIX asr o'zbek adabiyoti va san'atida ijtimoiy, siyosiy jarayonlarida faol ishtirok etgan, millat ma'rifati ozozdligi, hurligi yo'lida mardonavor kurashgan ushbu allomaning sermahsul faoliyati tarix sahfalaridan mangu o'ringa ega bo'ldi.

Foydalilanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Mahmudxo'ja Behbudiy tanlangan asarlar Toshkent „Ma'naviyat” 1999.
2. O'zbekiston ensiklopediyasi . Toshkent. 1991.



ФУНУН УЛ-БАЛОҒА"ДА ҚОФИЯ НАЗАРИЯСИННИГ АКС ЭТИШИ

Мавзуна Абдураҳимова Абдумандоновна

Денов тадбиркорлик ва педагогика институти ўқитувчisi

+998(99)0042242

mavzunaabduraximova1@gmail.com

Аннотация. Ушбу тезис туркий адабиётшуносликдаги илк назариётчи олим Шайх Аҳмад ибн Худойдод Тарозийнинг "Фунун ул балоға" асари иккинчи фанн (боб)и хусусидадир. Қофия ва радиф назариясига бағишлиланган ушбу фаннда олим қофия ва радиф илмларини фасллар мисолида тушунтириб бергани изоҳланган.

Калит сўзлар: адабиётшунослик назарияси, шеър, қофия ва радиф, мутавотир, мутародиф, мутарокиб, мутадорик, мутақовис, мутасовий, мутарожих, мутазойид.

Мумтоз шеъриятимизда қофия бадииятнинг асосий қирраларидан саналиб келган. Ижодкорнинг салоҳияти шеърларда кўлланган қофияларнинг ғоялар моҳиятини, тимсоллар қиёфасини очишдаги аҳамияти қофия учун танланган сўзларнинг маънавий теранлиги, оҳангдорлиги, жило ва жозибаси билан ҳам белгиланган. Қофиянинг хилма-хил турлари ва санъатларидан, вазн ва қофия муносабатларидан ўринли фойдаланиш шоир маҳоратининг муҳим жиҳатларидан бири ҳисобланган. Шунинг учун ҳам ҳар қайси ижодкор қофия илмини дикқат эътибор билан ўрганган, етук малик ул-калом шоирларнинг асарларидан таълим олиб ижод қилганлар. XII асрда яшаган Рашидиддин Ватвотнинг "Хадоик ус-сехр фи дақоқ уш-шеър" ("Сехр боғлари, шеър нозикликлари ҳақида"), XIII аср олими Шамсиддин Муҳаммад ибн Қайс Розийнинг "Ал-мўъжам фи маъйири ашъор ул-ажам" ("Ажам шеърияти ўлчовлари луғати"), шу асрда ўтган Носириддин Тусийнинг "Меъёр ул-ашъор" ("Шеърлар ўлчови"), ва илк маротаба туркий тилда адабиётшунослик назариясига бағишлиланган Шайх Аҳмад ибн Худойдод Тарозийнинг "Фунун ул балоға" асарлари улкан илмий мактаб вазифасини ўтади.

Жумладан, мумтоз адабиётшунос олим Аҳмад Тарозий "Фунун ул-балоға" асарида қофияни чуқур таҳлил этиб беради. Бадиият илмида қофия ўрнини юксак белгилаб, у шеърнинг устуни эканлигини, усиз шеър мумкин эмаслигини таъкидлайди: "...таъбнинг натижаси шеърдур. Ва шеърнинг асли қофия. Ва қофиясиз шеър мумкин эрмас"¹. Муаллиф асарда адабиёт учун қофиянинг муҳимлигига дикқатни тортиш билан бирга, уни билиш ва маҳорат билан кўллай олиш ижодкорнинг санъаткорлик даражасини белгилаб беришини таъкидлайди: "Билгилким, мажмуи уламо ва фузало мазҳабинда аҳли табъфа қофия илмин билмак муҳимдир"². "Фунун ул-балоға" муаллифининг таъкидлашича, алломалар байтни уйга, қофияни эса уни тутиб турувчи устунга қиёслашган: "Ва зурафо байтни хаймаға нисбат қилибтурлар ва қофияни стунга. Яъни, стун бирла барпойдур"³. Мазкур фикр муаллифнинг "қофиясиз шеър мумкин эмас", деган қарашини яна бир бор тасдиқлайди. Муаллиф мазкур рисолада қофия билан боғлиқ барча масалаларга жавоб беради. Унда қофиянинг шеъриятдаги мақоми, аҳамияти, унинг турлари, уни ташкил этувчи унсурлари ҳақида аниқ маълумот берилади. Мазкур масалаларни ёритишда муаллиф араб ва форс (ажам) шоирлари ижодини бир-бири билан қиёслаш йўлидан боради. Шайх Аҳмад қофия ва радиф назарияси ҳамда қонун-қоидаларини 9 фаслда тушунтириб берган:

Биринчи фасл араб уламолари томонидан қофиянинг беш қисмга бўлинган: мутавотир, мутародиф, мутарокиб, мутадорик, мутақовис ҳамда кейинчалик форслар изофа қилган: мутасовий, мутарожих, мутазойид шакллари таърифига бағишлиланган.

1) **Мутавотир – фа** вазнида бўлиб, бир харакат ва бир сокиндан ташкил топади: *ахтар ва анбар*.

2) **Мутародиф – фоа** вазнида бўлиб, бир мутаҳаррик ва икки сокиндан ташкил топади: *таъбир ва тафсир*.

¹ Шайх Аҳмад ибн Худойдод Тарозий. Фунун ул-балоға (Бодлиан кутубхонасида сақланувчи Elliott №-127 раками кўлёзма). – С.26а.

² Шайх Аҳмад ибн Худойдод Тарозий. Юкоридаги манба.

³ Шайх Аҳмад ибн Худойдод Тарозий. Юкоридаги манба.



3) **Мутадорик – фаала** вазнида бўлиб, бир сокин, мутахаррик ва яна бир сокин (ватад-и мажмуъ) дан ташкил топади: *мухтасар ва мўътабар*.

4) **Мутасовий – фаол** вазнида бўлиб, сокиндан сўнг ватади касрат яъни, икки мутахаррик ва икки сокиндан ташкил топади: *дилистон ва шуд ниҳон*.

5) **Мутарокиб – фаалан** вазнида бўлиб, сокиндан сўнг уч мутахаррик ва яна сокин (фосила-и сурғо) келади: *дилбари ман ва сарви чаман*.

6) **Мутарожих – фаулоту** вазнида бўлиб, сокин, уч мутахаррик ва яна икки сокиндан ташкил топади: *нақши жаҳон ва бори гарон*.

7) **Мутақовис – фаалатун** вазнида бўлиб, сокин, тўрт мутахаррик ва бир сокиндан ташкил топади: *гул шакари ман ва бар жигари ман*.

8) **Мутазойид – фаалатон** вазнида бўлиб, сокин, тўрт мутахаррик ва яна икки сокиндан ташкил топади: *эй шоҳи жаҳон ва дар дили касон*.

Иккинчи фасл да форслар эътироф этган *аслий қофия, маъмулий қофия ва шойгон қофиялар* хусусида сўз боради. Агар қофия учун танланган сўз ҳеч қандай ўзгаришларга учрамай, равий ҳарфи калиманинг ўзидан бўлса, **аслий қофия** дейилади. Масалан: *ҳубоб ва гулоб, ҳабиб ва рақиб, ҳур ва нур, гул ва мул каби*. Агар қофия учун танланган сўз ўзгаришларга учраб равий ҳарфи калиманинг ўзидан бўлмаса, у қофияга **маъмулий қофия** дейилади. Масалан: *гуфтан ва суфтан*. Шайх Аҳмад бу қофиядан қасида ва маснавий каби жанрларда фойдаланиш ўринли деб хисоблайди: “... қасиданинг ақалли йигирма байт бўлур, кўп қофия керак, то бир қасида тамом бўлғай. Бас бу сабабтин агар аслий қофия битилмаса, маъмулий қофия ҳар нечаким келтурса раводур то мақсудин интиҳога келтурғай. Ва маснавийда ҳам мақсуд қиссанинг баёнидур, сўзга қофияни келтурмак керак бу душвордур. Вале сўзни қофияга келтурмак осон. Бас, ҳикоятқа аслий қофия рост келмаса, маъмул келтурса раводур, то қиссани шарҳқа келтургай”¹. Масалан:

Бад ў гуфт Ковус к-эй пурхирад,

Дилат яқсар андешиаи бад барад. (Фирдавсий)

Бу байтдаги сўнгги мисранинг қофияси маъмулий қофиядир. Лекин, Шайх Аҳмаднинг таъкидлашича, ғазал, қитъа, рубоий каби жанрларда бу қофиянинг ишлатилиниши ноўриндир “...ул жиҳаттинким, рубоий тўрт мисраедур. Уч қофия бирла тамом бўлур. Ва қитъанинг ақалли икки байттур. Икки қофия бирла тамом бўлур. Ва ғазалнинг ҳам ози беш байттур. Ва зарурат ҳолатида тўрт байт беш қофия бирла тамом бўлур. Ҳеч муҳим эрмаским, маъмулий қофия келтургайлар”². **Шойгон** (лойик, сазовор) **қофия** эса беш хил усулдан ҳосил бўлади: 1)алиф ва нун ҳарфлари бирикувидан: *мардумон ва суханон*; 2)ҳо ва алиф ҳарфлари бирикувидан: *сарҳо ва дилҳо*; 3)ё ва дол ҳарфлари бирикувидан: *равид ва шавид*; 4)нун ва дол ҳарфлари жамъидан: *раванд ва баранд*; 5)ё ва мим ҳарфлари бирикувидан: *барим ва хўрим*. Шайх Аҳмаднинг фикрича, “...мажмуи уламо қошинда қофияни шойгон барча маҳалда айбтур”.

Учинчи, тўртминчи, бешинчи фасллар қофия учун лозим бўлган тўққиз ҳарф (таъсис, даҳил, ридф, қайд, равий, васл, хуруж, мазид, ноира) нинг изоҳига ва уларни мисоллар билан тушунтиришга бағишлиланган. Тўққиз ҳарфдан асосийси равий хисобланади. Шайх Аҳмад таъкидлаганидек, “... қофия шеърнинг аслийдур. Қофиянинг асли равийдур”. Юкорида санаган тартибдагидек, тўққиз ҳарфдан тўрттаси равийдан олдин, тўрттаси равийдан сўнг келади.

Равий (арабча “қофиядаги ундош товуш”) сўз ўзаги, ясама сўзларда негиз охиридаги ундош, чўзиқ унли ва баъзан эса қисқа унлиларнинг айнан тақрорланишидан юзага келади. Угоҳ мутахаррик, гоҳ сокин бўлади. Равий агар сокин бўлса, **равийи муқайяд** (*гул ва мул*) ва агар мутахаррик бўлса, **равийи мутлак** (*гуле ва булбуле*) дейилади.

Васл равийдан кейин келувчи ҳарфdir. Масалан: *гули ва мули*. Бу ерда “лом” ҳарфи равий, “ё” эса васл.

Хуруж васлдан сўнг келувчи ҳарф. Масалан: *хаёлот ва камолот*. Бу ерда “лом” равий, “алиф” васл ва “то” ҳарфи эса хуруждир.

Мазид хуруждан сўнг келувчи ҳарф. Масалан: *хаёлоти ва камолоти*. Бу ерда мазид “ё”

¹ Шайх Аҳмад ибн Худойдод Тарозий. Фунун ул-балоға (Бодлиян кутубхонасида сакланувчи Elliott №-127 рақамли қўлёзма). – С. 296.

² Шайх Аҳмад ибн Худойдод Тарозий. Юқ оридаги манба.



ҳарфидир.

Ноира мазиддан сўнг келувчи ҳарф. Масалан: додаем ва ниҳодаем. Бу ерда “дол” равий, “ҳо” васл, “ҳамза” хуруж”, “ё” мазид ва “мим” ноирадир.

Қайд равийдан олдин келувчи ҳаракатсиз ундош товуш. Масалан: гуфт ва суфт, “то” равий, “фа” қайддир.

Ридф равийдан олдин келувчи чўзиқ унлилар (алиф, вов, ё) дир. Масалан: кор ва бор, хур ва нур, чин ва ойин.

Дахил равий билан таъсиснинг ўртасида келувчи ҳарф. Унинг такори лозим эмас. Бир байтда бошқа ҳарф билан, иккинчи байтда ўзга ҳарф билан келиши мумкин. Масалан: тохир ва қосир. Бу ерда “ҳо” билан “син” дахилдир.

Таъсис равийдан олдин бир ҳаракатли ундошдан илгари келувчи чўзиқ унли (“алиф”). Тўққиз ҳарфнинг оғози шу ҳарфдандир. Масалан: олим ва ҳоким. Бу ерда “алиф” таъсисдир.

Олтинчи фаслда эса, Шайх Аҳмад қофиядаги олти ҳаракат (итлоқ, хаз, рас, ишбоъ, тавжех, ниҳод) ни тушунтириб берган.

Еттинчи фаслда зулқофиятайн қофия тушунтирилган. Агар шеърда икки қофия келтирилса, зулқофиятайн қофия ҳосил бўлади. Масалан,

Эй лаблари ақиқ, тиши дур сўзи шакар,

Гар офтоб боқса юзунга қўзи қамар.

Биринчи қофиядош сўзлар сўзи ва қўзи, иккинчisi шакар ва қамар.

Саккизинчи фаслда радиф хусусида сўз боради. **Радиф** қофиядан сўнг бир хил шаклда такорланиб келувчи сўз ёки сўзлар йиғиндисидир. Шайх Аҳмаднинг таъкидлашича: “...Ва бу ажам шуаросининг махсусидур ва муни араб билмас.

...Ва радиф агарчи шеърда лозим эрмас, vale анга оройиши тамом ҳосилдур. Ва араб қошинда ҳар шеъриким, анда ридф ҳарфи бўлса, они мураддаф ўқурлар. Ва ажам қошинда ҳар шеърдаким, радиф бўлса, они **мураддаф** дерлар”¹.

Боди сабоки, зулфини гул уза тор-тор этар,

Сабру қарору тоқату ақлин бекарор этар. (Тарозий)

Бу ерда “этар” сўзи радифдир.

Эй дўст, ки зи дил зи банда бардоштан,

Некўст, ки зи дил зи банда бардоштан.

То бишнидаст менагунжад душман,

Дар пўст, ки зи дил зи банда бардоштан. (Ваҳид Табризий)

Бу рубоийда дўст, некўст ва пўст қофия, қолган сўзлар радифдир.

Тўққизинчи фаслда зулқофиятайн **мураддаф** таърифи берилган. Агар икки қофия билан радиф келтирилса, зулқофиятайн мураддаф ҳосил бўлади.

Ба санубари қади дилкаши агар, эй сабо, гузаре куни,

Чи шавад агар зи сари сафо ба мани гадо хабаре куни.

(Бисотий)

Бу ерда **сабо** ва **гадо** бир қофия, **хабаре** ва **гузаре** иккинчи қофия, мисралар охирида такорланиб келаётган **куни** сўзи эса радифдир. Агар радиф икки қофия орасида келтирилса, **маҳжуб** ёки **ҳожиб** дейилади.

Қаддинг санубару моҳитобон эрур юзунг

Оғзинг эрур садафу дурри ғалтон эрур сўзунг.

Қошинг карашма бобида гар бўлса беназир,

Зулфунг қароқчи, жодуий фаттон эрур қўзунг. (Тарозий)

Бу ерда **эрур** сўзи радифдир. Булардан ташқари яна бир шеър тури мавжуд бўлиб, қофиянинг ўрнида радиф келтирилади. Бу шеър турига ҳарора дейилади.

Эй сўзи қанду эрни мул, дасти манаству доманат.

Зулфи бинафша юзи гул, дасти манаSTRU доманат

Шайх Аҳмад Тарозий қофия ва радиф қисмини изоҳлашга киришар экан, араблар ва ажам (форс)ларнинг назарияларини бир-бири билан таққослаш йўлидан боради. Демак, у араблар ва ажамлар дастуриламалларидан фойдалангани аниқ. Шайх Аҳмад ушбу қисмнинг муқаддимасида Мавлоно Халилни тилга олади. Бу ўринда Шайх Аҳмад аруз фанининг

¹ Шайх Аҳмад ибн Худойод Тарозий. . Фунун ул-балоға (Бодлиан кутубхонасида сакланувчи Elliott №-127 ракамили қўллэзма). – С. 39а.



асосчиси Халил ибн Аҳмад (718-792)ни кўзда тутмоқда. Халил ибн Аҳмаднинг аruz соҳасидаги илмий ишлари билан бир қаторда, араб тили грамматикаси, қофия назарияси бўйича яратган ишлари ҳам ғоят эътиборли бўлиб, қофия масаласида Шайх Аҳмаднинг унга суюнгани бежиз эмас.

Шайх Аҳмад рисоланинг аruz қисмида Шамс Қайс Розийнинг “Ал-мўъжам” асаридан фойдаланганини кузатган эдик. Қайс Розий мазкур асари форс тилида яратилган бўлиб, шеърий илмлар учлиги – аruz илми, қофия ва бадиий санъатлар ҳақида баҳслашиб, шеърнинг мезони ва унинг вазифалари, қофия ва унинг турлари, бадиий санъатлар ва уларнинг тусланиши, хиллари ҳақида чуқур илмий-назарий мулоҳазалар юритган. Устоз олим Б. Валихўжаев бу асарнинг ўз замонида ва ундан кейинги даврдаги илмий аҳамияти ҳақида фикр юритиб, шундай ёзади: “Шамсиддин Қайс Розийнинг “Китоб ул-мўъжам” (“Ал-мўъжам” асари назарда тутилган) асари узоқ йиллар давомида шеър ва шоирлик билан шуғулланувчиларнинг дастуриламалига айланган эди. Бунинг асосий сабаби шундаки, Қайс Розий ўзигача мавжуд бўлган шеърият тажрибаси асосида майдонга келган назарий фикрларни умумлаштириб берган эди. Шунинг натижасида, муаллифнинг аruz, қофия ва шеърий санъатлар соҳасидаги мулоҳазалари, адабий жанрлар ҳақидаги фикрлари ўша замон шароитига нисбатан мукаммаллиги билан ажralиб турарди”¹. Демак, бу китобнинг Тарозий кутубхонасида мавжудлигини ҳисобга олсақ, олим қофия ва радиф қисмини изоҳлашда, уни араблар яратган назариялар билан таққослашда Қайс Розийнинг асаридан фойдаланган, дейиш мумкин.

Фойдаланилган адабиётлар:

1. Шайх Аҳмад ибн Худойодд Тарозий. Фунун ул-балоға (Бодлиан кутубхонасида сақланувчи Eliott №-127 рақамли қўлёзма). 139 с.
2. Шайх Аҳмад ибн Худойодд Тарозий. Фунун ул-балоға. – Тошкент: Хазина, 1996. – 212 б.
3. Ҳожиахмедов А. Шеърий санъатлар ва мумтоз қофия. – Тошкент: Шарқ НМК, 1998. – 158 б.
4. Ботирхон Валихўжаев. Ўзбек адабиётшунослиги тарихи. X-XIX асрлар. – Тошкент: Ўзбекистон, 1993.

¹ Ботирхон Валихўжаев. Ўзбек адабиётшунослиги тарихи. X-XIX асрлар. -Тошкент: Ўзбекистон, 1993.



ABDULLA QAHHOR IJODIGA BIR NAZAR

Ro'zimova Oygul Saburbayevna

Xorazm viloyati Urganch tumani
43-son umumta'lim maktabi ona tili va
adabiyot fani o'qituvchisi

Annotatsiya: Ushbu maqolada buyuk hikoyanavis, tanqidchi, haqgo'y adib Abdulla Qahhor va uning asarlari, tanqid haqidagi fikrlari bayon qilingan.

Kalit so'zlar: A.Qahhor, tanqid, tahlil, hikoya, Bemor, Sarob, Sinchalak, urush.

O'zbek adabiyoti taraqqiyotiga katta hissa qo'shgan Abdulla Qahhor 1907-yili Qo'qon shahrida temirchi oilasida dunyoga keldi. O'rta ma'lumotni Qo'qonda olgan Abdulla 1925-yilda Toshkentga kelib, "Qizil O'zbekiston" gazetasida ishlaydi. U O'rta Osiyo Davlat universitetining pedagogika fakultetida (1930) tahsil oldi. Yozuvchi "Sovet adabiyoti" jurnalida mas'ul kotib, O'zbekiston Davlat nashriyotida muharrir lavozimlarida ishladi.

Abdulla Qahhorning ijodi 1924-yildan boshlangan. Dastlab "Mushtum" jurnalida, "Yangi Farg'ona" gazetasida uning hikoya, felyeton, xabarlari bosildi. Yozuvchining "Olam yasharadi" nomli birinchi hikoyalar to'plami 1935-yilda chop etilgan. 30-yillarda adibning uchta "Hikoyalar" to'plami (1935, 1938, 1939) kitobxonlar qo'ligatedi. Bu davrda Abdulla Qahhorkichik hikoyalardan tashqari "Sarob" (1935) romanini yozdi. Urush yillarda yozuvchining bir qancha felyeton, ocherk va hikoyalari e'lon qilindi. "Asror bobo", "Dardaqdan chiqqan qahramon", "Kampirlar sim qoqdi", "Xotinlar", "Oltin yulduz" kabi o'nlab hikoya va qissalarida o'zbek jangchilarining mardligi, xalqimizning mehnatdagi jonbozliklari, yuksak vatanparvarligi ifodalangan. Urush yillarda yozuvchining bir qancha felyeton, ocherk va hikoyalari e'lon qilindi. "Asror bobo", "Dardaqdan chiqqan qahramon", "Kampirlar sim qoqdi", "Xotinlar", "Oltin yulduz" kabi o'nlab hikoya va qissalarida o'zbek jangchilarining mardligi, xalqimizning mehnatdagi jonbozliklari, yuksak vatanparvarligi ifodalangan. U o'zining "Shohi so'zana" (1951), "Og'riq tishlar" (1954), "Tobutdan tovush" (1962), "Ayajonlarim" (1967) komediyalari bilan o'zbek dramaturgiyasi rivojiga salmoqli hissa qo'shdi. Ayniqsa, "Shohi so'zana" pyesasida dramaturg qo'riq va bo'z yerlarni o'zlashtirish mavzuuni zo'r mahorat bilan yoritdi. Pyesa respublikamiz va qator xorijiy mamlakatlar sahnalarida muvaffaqiyatlari namoyish qilindi. Yozuvchining "Sinchalak" (1958), "O'tmishdan ertaklar" (1965), "Muhabbat" (1968) qissalari o'zbek nasrinining taraqqiyotiga muhim hissa bo'lib qo'shildi.

O'zbekiston xalq yozuvchisi Abdulla Qahhor mustaqillik yillarda o'zbek adabiyoti va madaniyatni rivojiga qo'shgan ulkan hissasi uchun "Buyuk xizmatlari uchun" ordeni bilan mukofotlangan.

Abdulla Qahhor hayotda ham, badiiy adabiyotda ham haqiqat uchun kurashgan ijodkordir. Abdullaga ollohol tomonidan berilgan yozuvchilik istedodi uning hayot chog'larida ham, dunyonи tark etgan chog'larida ham ungaga muxlislar e'tirofini, kitobxonlar e'tiborini, shogirdlar ardog'ini in'om etdi. U yozgan asarlar insonga nasihat, shukronalik, zavq, ezbilik, mehr bag'ishladi. A.Qahhor oddiy insonlar hayotini, o'zi korgan va eshitgan haqiqatlarini qo'gozga tushirdi.

Abdulla Qahhorning hikoyalari, qissa, va romanlari bir-biriga oxshamas, takrorlanmas. Uning hikoyalaridagi qahramonlar sizda turli his-tuygularni yaratadi. "O'gri" hikoyasini o'qisangiz jamiyatdagi mansabdor insonlardan nafratingiz qo'zg'iydi, agar "Anor", "Bemor" hikoyasini o'qib ko'rsangiz, faqir aholining mehnatini arzimas pulga baholayotgan xo'jayinlardan o'ch olgingiz keladi, "Asror bobo" hikoyasi bilan tanishib chiqsangiz hayotda mehrli insonlar borligiga amin bo'lasiz. "Sinchalak" qissasida erkaklardan qolishmagan mard ayol timsoli Saida Aliyevaga havas qilasiz. Bu badiiy san'at asarları nafaqat Abdulla Qahhorning, balki butun o'zbek farzandining boy merosi. Hikoyalar qisqa, lo'nda, balandparvoz so'zlarsiz, oddiy soddagina yozilgan bo'lsada, uning zamirida o'zga bir ma'no mavjud. U hikoyalarini nima bilan tugashini ochiq bayon etmaydi. Kitobxon teran fikrlab bu ma'nolar mag'zini chaqishini istaydi.

Abdulla Qahhor deganda tanqidga alohida töxtalsak bўladi. U tanqidchi, tanqidchi bo'lganda ham talantli tanqidchi. Abdulla Qahhor iste'dodli tanqidchi shogirdi Umarali Normatovga tanqid bo'yicha ko'pgina saboqlar bergan. Tanqid, tanqidchi hammadan burun halol bo'lishi kerak. Tanqid nihoyatda pokiza bir maydon... Bu maydonga qadam qo'ygan odam ham o'ta pokiza, har qanday g'uborlardan, shaxsiy ta'ma, g'arazlardan butunlay xoli bo'lishi shart; bu maydonda u



faqat bir narsani – adabiyot, kitobxon manfaatinigina o'ylashi kerak. Abdulla Qahhorning "Sarob" romani bosilib chiqqandan keyin 20 yil tanqid taqibida bo'ldi. U o'sha davrni shunday eslaydi: "Sarob" ilk bor bosilganida, sochimda birorta ham oq tola yo'q edi. "Sarob" tufayli yigirma yil boshimda tanqid tayog'i sinaverib, sochimning birorta ham qora tolasi qolmadi... Adib "Tanqidning eng asosiy vazifasi – talantni, talantli asarlarni kashf etish", – degan so'zlarni ko'p takrorlardi va tanqidchi do'stlarini, shogirdlarini shunga da'vat etardi.

Abdulla Qahhor ijodini o'rganish darslari o'tmisht bilan bugun o'rtasidagi ko'prik; hayot dinamikasining badiiy tasviri; so'z qudratining yorqin ifodasi; hayot, yashash suratining asl oq-qora in'ikosi; fikrlar, mushohadalarga turtki beruvchi botiniy qudrat; bugunning shukronasini teran tuyish uchun ma'naviy ibrat, ma'rifiy ozuqa sifatida baholanishi, his etilishi, voqelanishi juda muhimdir. O'quvchi adabiy ta'lilda Abdulla Qahhor asarlarini o'rganishga kirishar ekan, har bir gap, so'z qatiga yashiringan sirdan voqif bo'lishga, uni idrok qilishga; hissiy ta'sirlanishga, mushohada yuritishga undaydi. "Bemor" hikoyasi tahliliga kirishilar ekan birinchi jumlaning o'ziyoq o'quvchi tafakkuriga turtki berishi lozim: " Sotiboldining xotini og'rib qoldi". Hamma narsa, voqeal shundan boshlandi. Sotiboldining xotinini og'rib qolishi – bu oila tanazzulining muqarrarligi, bu o'zi halovatsiz o'tayotgan kunlarning yanada faysiz, halovatsiz bo'lishi; ruhiy azoblarning avjga minishi; osmonning yiroq, yerning qattiq bo'lishi, adoqsiz ma'naviy qynoqlar, moddiy tahqirlanishlarning yanada palak otishi. O'quvchilar agar shu birgina jumla ortida shuncha yuk borligi his qilsalar, idrok qila bilsalar, muhimi, undan zaruriy xulosalar yasay olsalar shubhasiz, katta yutuq qo'lga kiritilgan bo'ladi. O'quvchi asar yakunida o'zi uchun zaruriy sanalgan talablar tizimini ishlab chiqadi: doimo sog'lom bo'lishga intilish, sog'lom turmush tarzi –farovonlik garovi, sport bilan shug'ullanish; zararli odatlarga ko'nikma hosil qilmaslik, sog'lik - katta boylik va uni avaylab-asrash o'z qo'limizda va h.k.

Foydalanimgan adabiyotlar

1. S. Mirvaliyev, R. Shokirova. O'zbek adiblari.
2. Mahkamova SH. Abdulla Qahhor ijodini o'rganish tajribasidan.
3. Matjonov S., Saidmurodov X. Ulug' adib ijodini o'rganishda oshkora muloqot.



INSONIYLIK - NAVOIY TALQINIDA

Ro'zimova Shoira Saburovna

Xorazm viloyati Urganch tumani

43-son umumta'l'm maktabi

ona tili va adabiyot fani o'qituvchisi

Annotatsiya: Ushbu maqolada insoniylik tuyg'ulari Navoiy talqinida bayon qilingan. Doimo haqiqat yo'lida kurashish, ezungulik, tavoze, sabr, shukrona, hayo tuyg'ulari Navoiy talqinida aks ettirilgan.

Kalit so'zlar: insoniylik, xulq, qadr-qimmat, sabr, shukrona, komil inson, hayo, tavoze, haqiqat, mashaqqat, saxovat.

Insonning tabiat, insoniylikning mohiyati, inson holu holatining qatlamlarini teran tafakkur yordamida chuqur tadqiq qilish, shoirona ifoda etish Alisher Navoiy ijodining asosiy xususiyatni hisoblanadi.

Insonning xulq-atvori, ruhiy olami tadqiqiga bag'ishlangan adabiyotlarga ko'ra, odamzotda 128 yaxshi xislat hamda 76 yomon xulq mavjud. Alisher Navoiy shuncha xislat ichida insoniylikning birinchi sharti sifatida sabrni qayd etadi. Odatda, sabr deganda, mushkul vaziyatlarda bardoshli bo'lish tushuniladi. Ammo sabrning ma'no qamrovi nihoyatda keng bo'lib, nafs qutqusiga uchmaslik, yaxshi hollar shukronasi, yomonliklardan iztirob chekmaslik va umidsizlanmaslik uning asosiy xususiyatlari hisoblanadi.

Hayotda faoliyatsizlik, qadr-qimmat va haq-huquqlar oyoqosti qilinishiga loqayd qarash, qo'rquiv va jur'atsizlik holatlari ham uchrab turadi. Sabr – mutelik va qaramlikning bir ko'rinishi emas. Sabr – muayyan voqe-a-hodisa natijasida bir-biri bilan ixtilofda bo'lgan tuyg'u va kechinmalardan yuzaga keladigan insoniy fazilat. Bir umr haqiqat yo'lida kurashgan Alisher Navoiy ham bu yo'lning mashaqqatlari, ezgu maqsad-muddaolarga erishishning qiyinchiliklari, nafs degan ashaddiy dushmani bor ko'ngil hamma vaqt ham bu qiyinchiliklarga bardosh berolmay mahzun bo'lishi va hatto ayrim hollarda iroda zaiflik qilib, vijdonga xilof ish tutish holatlariga ham duch kelgan. Shoир har qanday holatda ezungulik yo'lidan chekinmaslik, shu orqali sabr – ko'ngilning iztirob va umidsizlikdan xoli bo'lishi, maqsadga yetish yo'lida har qanday musibat va kulfatlarga bardosh berishi, oxir-oqibat, baxt va shodlikka erishish lozimligi, bu yo'l og'ir bo'lganiga qaramasdan, ezungulik va saodat yo'li ekanini o'z g'azallarida ifoda etgan.

Insoniylikning ikkinchi sharti – har inson qalbida shukronalik tuyg'usining ustuvor bo'lishidir. Navoiy bashariyat taraqqiyoti uchun shukronalik tuyg'usi nechog'li ahamiyat kasb etishini teran anglagan zotlardan edi. Uning talqinicha, tinchlik, ofiyat, salomatlik, barqarorlik kabi bebaone matlarning qadriga yetmaslik jamiyatda nosog'lom muhitni vujudga keltirib, rivojlanish va taraqqiyotga xavf soladi. Shukronalik tuyg'usi barqaror bo'lgan jamiyat ham moddiy farovonlik, ham ma'naviy taraqqiyot marralarini zabt eta oladi.

Insonga insoniylik maqomini eslatib turuvchi yana bir muhim xislat – bu, hayo tuyg'usidir. Alisher Navoiy ushbu axloqiy qadriyatni komillik belgisi, nomus timsoli, vafo va imon bilan mushtarak tuyg'u sifatida baland pardalarda kuylagan. Jumladan, "Mahbub ul-qulub" asarida o'qiymiz: "Har ko'ngulnikim vafo maskan qilur, hayo ham qilur... Vafosizda hayo yo'q, hayosizda vafo yo'q. Har kimda bu ikki yo'q – imon yo'q. Komillar – ahli vafo va noqislar – behayo". Navoiyning hayo tushunchasiga bergen ta'rifiga diqqat bilan razm solsak, hayolilik kishining ma'naviyatlari, imon-e'tiqodli, to'g'riso'z va vafoli ekanini anglatadi, hayosizlik esa buning aksi o'laroq nopoliklikka moyillik, subutsizlik, bag'ritoshlikni ifodalaydi. Agar sabr va shukr tuyg'ulari asosan insonning tashqi olamga bo'lgan munosabatlarini tartibga soladigan bo'lsa, hayo – insonning o'z xatti-harakatlarini boshqalar nuqtai-nazaridan baholashi bilan bog'liqidir.

Alisher Navoiy talqinicha, olam bo'stoni mayjudligining asosiy sababi hamda bu bo'stonning "guli maqsud"i insondir:

Bu chaman o'lmos'ida mavjud anga,

Bor edi inson guli maqsud anga.

Ulug' shoир qit'alaridan birida komil inson haqida mulohaza yuritib, chin inson bo'lishning asosiy shartlaridan biri sifatida tavozeni keltiradi. Tavoze – xoksorlik, adab demak. Navoiy fikricha, tavozelni bo'lmoq insonni o'z mohiyatini anglashga boshlaydi, unga sharaf, ruhiy xotirjamlik va



sokinlik keltiradi, kichiklarni yoshi ulug'lar orasida hurmat qozonishga zamin yaratadi, katta yoshli kishilarga ulug'vorlik baxsh etadi. Mumtoz adabiyotimizda xoksorlik ko'pincha darveshlar xulq-atvori sifatida talqin qilinadi. Navoiy qit'asida bu xislat boy-badavlat kishilarda bo'lsa nur ustiga nur bo'lishi ta'kidlanadi:

Tavozo' yaxshi, ammo yaxshiroqdir

Agar da'b etsa oni ahli davlat.

Boylikni ma'naviy kamolotga qarshi qo'yib, yo'qsillikni targ'ib etib kelgan sobiq sho'ro mafkurasi odamlarda moddiy farovonlikdan nafratlanish, aksincha, kambag'allikni fazilat, deb bilish tushunchasini paydo qilgan edi. Ko'hna Sharq mutafakkirlari boylik va dunyoparastlik o'rtasiga farq qo'yan. Dunyo, boylik miqdori bilan emas, balki haq yo'ldan chalg'itish-chalg'itmasligi bilan yaxshi yoki yomon sifat kasb qilishi mumkin. Inson zamirida boylik tufayli tug'iladigan eng xavfli kasallik – bu takabburlikdir. Mol-dunyosi ko'pligini pesh qilib, oyog'i yerdan uzilganlar hamma zamonda ham ko'plab topilishi shubhasiz. Ammo boylik – insoniylikning maqsadi emas, balki maqsadga erishish uchun bir vosita ekanligini unutmagan va tavozeli bo'lismi odat qilgan badavlat kishilar xokisor kambag'aldan martabasi ortiqroqdir.

Navoiy talqinida insoniylikning yana bir sharti – bu, ato, ya'ni saxovatdir. Saxovat hamisha mardlikning eng olyi ko'rinishi sifatida qadrlangan. Navoiy saxovatni bunday ta'riflaydi:

Ato ham turfa ishdur, turfaroq bil,

Agar yo'qdur aning yonida minnat.

Ko'hna Sharqning komillik maktablari bizning tafakkurimizni har lahma charxlab turguvchi ezgu g'oya va tushunchalarga ega. Alisher Navoiyning insoniy komillik martabasi va shartlari haqidagi qarashlarining o'zi har bir kishi uchun ulug' mifik tabadir.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Alisher Navoiy asarlari
2. S. Mirvaliyev, R. Shokirova. O'zbek adiblari.
3. www.ziyouz.com



AHMAD YASSAVIY HIKMATLARINI YOSH AVLODGA O'RGATISHNING AHAMIYATI

Shamuratova Zulkumor Shamurotovna
O'razmetova Go'zalxon Davronbekovna
Xorazm viloyati Urganch tumani
11-umumta'l'm maktabi Ona tili va
adabiyoti fani o'qituvchilari

Annotatsiya: ushbu maqolada ta'l'm tizimida Ahmad Yassaviy hayoti va uning hikmatlarini o'rgatishning ahamiyati xususida fikrlar berilib, shoirning adabiy merosi matnshunoslik nuqtai nazaridan tadqiq etilgan.

Kalit so'zlari: mumtoz siymolar, Ahmad Yassaviy, hikmatlar, tasavvuf, komillik. Ahmad Yassaviy turkiy-tasavvuf she'riyatining asoschisi, atoqli mutasavvuf shoirdir. Xalq orasida "shayxul-mashoyix", "sultonul-orifin" unvonlari bilan ulug'langan buyuk ma'rifiy zotning hikmatlari turkiy xalqlar tomonidan bir necha yuz yillardan beri sevib mutolaa qilinadi. Hikmatlarida tasavvufning barcha yo'nalishini qamrab olgan, hamda she'rlarida mohirlik bilan tasavvuf mohiyatini singdira olgan adib hisoblanadi.

10-sinf Adabiyot darsligining birinchi qismidan o'rinni o'lgan "**O'zbek mumtoz adabiyoti**" bobida berilgan Atoyi, Alisher Navoiy, Bobur, Turdi Farog'iy kabi mumtoz siymolar qatorida Ahmad Yassaviy nomining zikr etilishi hamda uning maktab darsligida o'rganilishi muhim ahamiyatga ega. Mavzu o'z navbatida, Ahmad Yassaviyning hayoti va ijodi, hikmatlari, she'riyati va ularning mavzu ko'lamenti qamrab oladi. O'quvchi mavzuni o'zlashtirish jarayonida adib haqidagi bir qancha ma'lumotlarga hamda hikmatlarda qo'llanilgan obrazlar, tasavvufona tarzda yaratilgan ijod namunalaridan bahramand bo'ladi.

10-sinf Adabiyot darsligida Ahmad Yassaviy ijodining mahsuli hisoblanmish ba'zi hikmatlar va ularning sharxi keltirilgan. Avvalo, adib ijodida ishq talqini hamda uning boshqa mumtoz shoir va ijodkorlarnikidan farqli tomonlari sanab o'tilgan. Yassaviy Ollohga bo'lgan ishqni haqiqiy ishq deb biladi. Chin oshiq sifatlariga e'tibor qaratadi. Chin oshiq kim degan savolga quyidagicha javob beradi: Shoir nazdida chin oshiq bo'lish uchun "Allah debon ichga nurni to'ldirish, butun tanadagi tomir-u suyaklar larzaga kelgan holda "Haq zikri"ni qilish, rohat-farog'atdan kechish" lozim bo'ladi.

Adib hikmatlariga xos yana bir xususiyat-nafsga qarshi kurash masalasi bo'lib, shoir hamma vaqt nafsdek baloyi azimni yenga olmagan odamga achinadi, unga tanbeh beradi. Nafsni jilovlagan odam sabr-qanoatga erishadi. Agar oshiq bo'lsa, bunday sabrli ishq egasining "**mashhar kuni**"da armoni bo'lmaydi. Ishq muhokamasiga doir ushbu hikmatning boshqa bir bandida "*Nafsni tepib dargohiga loyiq bo'lg'il'deb ta'kidlanadi*:

*Ishqqa tushding, o'tga tushding, kuyib o'lding,
Parvonadek jondin kechib axgar bo'lding.
Dardga to'lding, g'amga to'lding, telba bo'lding,
Ishq dardini so'rsang hargiz darmoni yo'q.*

Ahmad Yassaviy ushbu bandda oshiq holining kuchayganligi, ishq dardiga mubtalo bo'lgan kishidagi ruhiy o'zgarishlarni tasvirlar ekan, oshiq holini bamisolni o'tga tushgan odam holiga qiyoslaydi. Yassaviy har vaqt nafs haqida gapirganda unga insonning kamolotida xalaqit beradigan yovuz va yaramas kuch sifatida baho beradi.. Shuningdek, shoir "nafsi bad", "nafsi yo'lli", "nafsi ilgi" singari istioralarni ham qo'llaydi. Adib to'g'ridan to'g'ri nafsga qarshi kurashni, uning yo'rig'iga yurmaslikni targ'ib qiladi. Nafsnинг domiga ilinishi insonni qanchalik yer bilan yakson qilishini juda yorqin ifodalarda ko'rsatib beradi. Boshqa bir she'rida shunga urg'u berib yozadi:

*Nafs yo'lig'a kirgan kishi rasvo bo'lur;
Yo'ldan ozib, toyib, to'zib gumroh bo'lur.
Yotsa, qo'psa shayton bilan hamroh bo'lur.
Nafsni tepkil, nafsni tepkil, ey bardikor.*

Ahmad Yassaviy she'riyatining keng tarqalishi va xalq orasida sevib o'qilishining asosiy sabablaridan biri uning xalq og'zaki ijodiga nihoyatda yaqinligidadir. Yassaviy hikmatlarida xalqparvarlik, mehr-muhabbat, sabr-u qanoat tushunchalari ham jonli tarzda o'z aksini topgan. Adib jaholat va razolatni qoralash, nodonlik, do'stlikka xiloflik qilish, manmanlikni ham tanqid qiladi:



*Duo qiling nodonlarning yuzin ko 'rmay,
Haq taolo rafiq bo 'lsa, birdam turmay,
Bemor bo 'lsa, nodonlarni holing so 'rmay,
Nodonlardin yuz ming jafo ko 'rdum mano.*

Bir guruh hikmatlarda shoir kishilarni qadrdon, halol-u pok, ilmdonishli, diyonatli, imon-e'tiqodli bo'lishga da'vat etadi; dilozordan haq bezor, barchaga yaxshilik qilmoq-har bir mo'minning bosh shioridur; chunki, mardumozorlikning jazosi qattiq:

*Sunnat ermish kofir bo 'lsa, berma ozor,
Ko 'ngli qattiq dilozordan xudo bezor.
Oqil ersang eranlarg 'a xizmat qilg 'il,
Amri ma 'ruf qilg 'onlarni izzat qilg 'il.*

Alisher Navoiy "Mahbub ul-qulub"da yozgan: "Nodon-eshak,balki eshakdan ham battar. Eshakka nimani yuklasang ko 'taradi; qayoqqa haydasang o'sha yoqqa boradi, unda aql-farosat davosi yo 'q bermasang och, bersang to 'q. Bu bir bechoradur, yuk tashuvchi, o 'tin-cho 'p tashuvchi, balki g 'alla tashuvchi... Nodon yuqoridagi sisatlardan holi; bilim libosidan mahrum. Nodonning ishi takabburlik, kekkayish, hayolida yuz xil behuda tashvish..."

Adabiyotimiz tarixida nodonlik atalmish ofatdan Ahmad Yassaviychalik ranj chekkan shoir bo'lmasa kerak. Nodonlik-xalqning kulfati. Nodonlik-o'ziga xos yovuzlik. Nodon-aql jallodi. Mana shuning uchun Yassaviy "Duo qiling nodonlarni yuzin ko 'rmay", deya yolvorgan va o'nlab hikmatlarini nodonlikdan shikoyat mazmunida yaratgan.

Xulosa o'rnida shuni aytishimiz mumkinki, Ahmad Yassaviy hayoti hamda uning hikmatlarini ta'lim tizimida o'rgatish yosh avlodni ma'naviy-ma'rifiy tarbiyalashda ahamiyatlidir. Ahmad Yassaviy qarashlarining millat madaniyati, qadriyati va ma'rifatdagi nufuzi baland bo'lgan. Uning xalq tasavvuridagi tarixiy va manqabiy siyomosi, unga doir rivoyatlar xalqning ko'z o'ngida ulug' shayxni ishq va irfon darg'asi qiyofasida gavdalantirib kelgan. Shu bois xalq unga bo'lgan ehtiromini darig' tutmagan va asrlar mobaynida Piri Turkiston, Xoja Turkiston, Sulton ul-orifin, Sulton ul-avliyo, Hazrati Sulton deya ta'riflab kelmoqdalar.

Foydalanilgan adabiyotlar.

1. Homidiy H. Ko'hna Sharq darg'alari. Badiiy-ilmiy lavhalar. –T.: 2004
2. Rahim Vohidov, Husniddin Eshonqulov. O'zbek mumtoz adabiyoti. – T.: 2006
3. 10-sinf Adabiyot Darslik. – T.: 2017



**G‘AFUR G‘ULOMNING “SHUM BOLA” QISSASIDA UCHRAGAN MAQOL,
IBORA, HIKMATLI SO‘ZLAR HAMDA ULAR TARKIBIDAGI YASAMA
SO‘ZLAR HAQIDA BA’ZI MULOHAZALAR**

Abdikarimova Nilufar Ikrom qizi,
Toshkent shahar Shayxontohur tumani 136-maktab
ona tili va adabiyot fani o‘qituvchisi

Annotatsiya: Ushbu maqolada xalq og‘zaki ijodidagi maqollarning yozma adabiyotga kirib kelishi, yozuvchi va shoir G‘afur G‘ulom o‘zining “Shum bola” qissasida o‘zbek xalq maqollaridan bir necha o‘rinlarda foydalanganligi haqida fikr yuritilgan.

Kalit so‘zlar: maqol, “Otalar so‘zi”, iboralar, hikmatli so‘zlar, affiksatsiya usulida yasalgan so‘zlar, kompozitsiya usulida yasalgan so‘zlar

O‘zbek xalqining boy adabiy merosi, bitmas-tuganmas xalq og‘zaki ijodi borligi, uning bilimdon, zukko va dono ekanligidan dalolat beradi. Xalqning o‘zi yaratgan qo‘shiqlari, laparlari, maqol-u, matallari, hikmatli so‘zлari uning tafakkurida yaratilib, sayqallanib mana necha asrlar davomida yashab o‘z ma’no mazmunini yo‘qotmasdan kelyapti.

Xalq og‘zaki ijodining go‘zal namunalaridan biri bu maqollardir. *Xalqning dono purhikmat ifodalari, uning hayotiy tajribalari asosida yuzaga kelgan dono fikrlarni ixcham shaklda ifodalovchi asar maqol deyiladi.* Maqol arabcha “so‘z” degan ma’noni anglatadi. O‘zbek adabiyotida maqolning “Otalar so‘zi” degan ma’nosini ham bor. Maqolning o‘ziga xos xususiyati bu fikrning aniqligi, xulosaning tugalligi, ifodanining lo‘ndaligidir. Maqol ikki xil shaklda bo‘ladi.

1. She’riy shaklda: Tilingni avayla, omondir boshing,

So‘zingni avayla, uzayar yoshing.

2. Nasriy shaklda : Til dil kaliti.

Odobli bola elga manzur.

Maqollarning mavzu ko‘lami keng. Masalan, ota-onasi, vatan, mehnat, mardlik, sadoqat va vafo, to‘g‘riso‘zlik, bilim, aql, bola odobi, yaxshilik va yomonlik, hayvonlar, tabiat va hokazolar haqidadir.

Xalq og‘zaki ijodidagi maqollarning yozma adabiyotga kirib kelishi Mahmud Koshg‘ariyning “Devoni lug‘atit turk” asari bilan bog‘liqdir. Mahmud Koshg‘ariy o‘zining asarida bir nechta maqollardan misollar keltirgan. Masalan, “Erik erni yag‘lig”, ermagu bashi qanlig” (Tirishqoqning labi yog‘lig, erinchoq, dangasaning boshi qonlik), “Emgak bekorga ketmaydi” (Mehnat bekorga ketmaydi)

Badiiy asarda maqollardan foydalanish adabiyotimizning ko‘pgina ijodkorlari tomonidan go‘zal tarzda qo‘llanilib kelinadi. Yozuvchi va shoir G‘afur G‘ulom o‘zining “Shum bola” qissasida o‘zbek xalq maqollaridan bir necha o‘rinlarda foydalangan. Maqollar qissaning badiiy jihatdan betakror bo‘lishida bevosita o‘z ta’sirini ko‘rsatgan. Qissada quyidagi maqollar keltirilgan.

Maqollar:

Oziqlik ot horimas.

Semizlikni qo‘y ko‘tarar.

O‘g‘ri qarisa so‘fi, g‘ar qarisa *parixon* bo‘ladi.

Yopiq qozon *yopiqligicha* qoldi.

Tuya ko‘rdingmi-yo‘q.

Bo‘sish qorin tik turmas.

Maslahatli to‘n tor kelmas.

Yangi yorni ko‘rganda eskisidan kechmoq kerak.

Sherikli oshni it ichmas.

Bir kaptan bersa to‘yg‘uzadi, Bir mushtdan ursa o‘ldiradi.

Mard maydonda.

O‘zingni ehtiyyot tut, qo‘shningni o‘g‘ri tutma.

Yetim qo‘zi asrasang og‘zi burning moy etar,

Yetim o‘g‘lon asrasang og‘zi burning qon etar.

Qissada maqollardan tashqari iboralar va hikmatli so‘zlar ham qo‘llanilgan .



Iboralar:

Pul- dardi kabob.
Egasi yo‘q mol afandiniki.
Qora po ‘stakdan burga qidirish qiyin.
Ashulaga non-osh beradi.
Jon og‘ritgani jondor qidirar.
Zirapchani nina bilan olganday.
Qornilaring to‘q - qayg‘ularing yo‘q .
Qulog‘i ostida qolgan (o‘lgan ma’nosida).
Qush uchsa qanoti, odam yursa qanoti kuyadi.
Qo‘ling yengil ekan.
O‘zbek mumtoz adabiyotining yirik vakillaridan Sa’diy Sheroziy va Alisher Navoiy hikmatlaridan ham namuna keltirilgan.

Hikmatli so‘zlar:

1. Sa’diy aytibdur: “Bir mamlakatda g‘arib bo‘lsang, *hurmatsizlansang*, safarni *ixtiyor qil*”.
 2. Navoiy aytibdur: “Ul kishidurkim, u dunyoni *tark qiladi*, dunyo uni *tark qilmasdan*”.
- Yuqoridaq maqollar qissaning bosh qahramoni Qoravoy , uning do‘siti Omon va asarning boshqa qahramonlari tilidan qo‘llanilgan. Bugungi kunda ushbu maqol, ibora va hikmatli so‘zlarning shakllari o‘zgargan bo‘lsa-da , ma’no va mazmuni o‘zgarmay xalq orasida ishlatalib kelinadi.

Umuman olganda, badiiy adabiyotda yaratilgan biror bir asar yo‘qki, maqollar, iboralar, hikmatli so‘zlar ishlatilmagan bo‘lsa. Asarning go‘zalligini, ta’sirchanligi va albatta badiiy jihatdan mukammalligini ham aynan shular ta’minlaydi. Yozuvchining aytayotgan fikrini lo‘nda qilib o‘quvchiga yetkazishida maqol, ibora va hikmatli so‘zlarning ahamiyati beqiyosdir.

Shuning uchun ham badiiy adabiyot namunalarida ushbu janrlar keng ko‘lamda qo‘llanilib kelinmoqda.

Endi biz atoqli shoir va yozuvchimiz G‘afur G‘ulomning “Shum bola” qissasida ishlataligan, yuqorida qayd etilgan maqol, ibora va hikmatli so‘zlarda ishlataligan yasama so‘zlar xususida to‘xtalamiz.

Yuqorida keltirilgan maqol, ibora va hikmatli so‘zlardagi yasama so‘zlar, asosan, affiksatsiya (so‘zga so‘z yasovchi qo‘shimcha qo‘shish) usulida va oz miqdorda kompozitsiya (so‘zga so‘z qo‘shish) usulida yasalgan.

Affiksatsiya usulida yasalgan so‘zlar:

- oziqlik – oziq+lik (otdan sifat yasalgan);
- semizlik – semiz+lik (sifatdan ot yasalgan);
- parixon – pari+xon (otdan ot yasalgan);
- yopiq – yop+iq (fe’ldan sifat yasalgan);
- yopiqligicha – yop+iq+ligicha (fe’ldan sifat, sifatdan ravish yasalgan);
- maslahatli – maslahat+li (otdan sifat yasalgan);
- sherikli – sherik+li (otdan sifat yasalgan);
- po‘stak – po‘st+ak (otdan ot yasalgan);
- jondor – jon+dor (otdan sifat yasalgan);
- hurmatsizlan – hurmat+siz+lan (otdan sifat, sifatdan fe’l yasalgan).

Kompozitsiya usulida yasalgan so‘zlar:

- ixtiyor qil – qo‘shma fe’l (ot+fe’ldan yasalgan);
- tark qiladi – qo‘shma fe’l (ot+fe’ldan yasalgan);
- tark qilmasdan – qo‘shma fe’l (ot+fe’ldan yasalgan).

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Mengliyev B., Xoliyorov O‘. O‘zbek tilidan universal qo‘llanma. –T:. 2018-yil
2. Qilichev E. Hozirgi o‘zbek adabiy tili. Buxoro: 2005-yil
3. Erkaboyeva N. O‘zbek tilidan ma’ruzalar majmuasi. –T:. 2019-yil.



**PIRIMQUL QODIROV IJODINING BADIY VA MA'RIFIY AHAMIYATI ("
YULDUZLI TUNLAR", "AVLODLAR DOVONI" ROMANLARI ASOSIDA)**

Shukurova Bahor Boltayevna

Toshkeht davlat texnika universiteti

Termiz filiali o'qituvchisi

Barotova Madinabonu Muxiddin qizi

Toshkent davlat pedagogika universiteti

Termiz filiali talabasi

Annotatsiya: Pirimqul Qodirovning tarixiy romanlarida temuriy hukmdorlar hayotining eng murakkab jihatlari qalamga olingan. Maqolada adibning "Yulduzli tunlar", "Avlodlar dovoni" romanlarida temuriylar davlat tuzumi va o'sha davrda kechgan siyosiy munosabatlarning ifodasi, xarakter va ruhiyat tasviri masalalari yoritilgan. Barcha voqealar asarning bosh qahramonlar sifatida belgilangan Bobur, Humoyun, Akbar nigohi orqali tasvirlanishi asarning badiiy qimmatini yanada oshirgan.

Kalit so'zlar: "Yulduzli tunlar", "Avlodlar dovoni", badiiy talqin, tarixiy haqiqat, qahramon ruhiyati.

Pirimqul Qodirov adabiyotga zamondosh-tengdoshlari hayotidan olib yozgan asarlari bilan kirib kelgan. Uning mustabid tuzum sharoitida inson erki, sha'ni, qadrini ardoqlash, qattiq turib himoya qilish, inson erkini poymol etayotgan kuchlarga qarshi keskin norozilik, zo'r kuyunchaklik, hazin va nurli o'ychanlik bilan yo'g'rilgan zamondoshlari haqidagi hikoya, qissa va romanlari XX asrning 60-70-yillari ma'naviy hayotimizda o'ziga xos hodisa bo'ldi.

Zamonaviy mavzuda bitilgan qator asarlari orqali kattagina adabiy tajriba to'plagan yozuvchi 60-yillarning oxirlariga kelib, zo'r jasorat bilan murakkab va qaltis tarixiy bir mavzuga qo'l urdi – temuriylar saltanatining o'z yurtidagi inqirozi, o'zga yurtlar – Afg'oniston va Hindistondagi o'zgacha ko'rinishda qayta tiklanishi, jahonshumul dovrug'i, Temurbek naslining shonli siymolaridan Bobur va uning avlodlari hayoti, faoliyati to'g'risida hikoya qiluvchi keng ko'lamli epik polotno ustida ish boshladi; uzoq yillik izchil tadqiqot, betinim ijodiy mehnat, ma'naviy-ruhiy izlanish, o'y-mushohadalar samarasi o'laroq "Yulduzli tunlar", "Avlodlar dovoni" romanlari maydonga keldi. "Yulduzli tunlar" keyinchalik "Bobur", "Avlodlar dovoni" esa "Humoyun va Akbar" nomi bilan chop etildi, biz ularni o'sha ilk go'zal obrazli nomlari bilan atashni lozim ko'rdik.

Adib bu qaltis, murakkab mavzuga qo'l urar ekan, oldinda hali ko'p mushkulotlar ro'y berishi mumkinligini yurakdan his etar, shu bilan barobar, oljanob, ulug' muddao diliga tinimsiz dalda berib turardi. "Bizni qaramlik va mutelikda saqlashga o'rgangan yovuz kuchlar tarixiy ildizlarimizni qirqib tashlashga, bizni o'tmishdan bexabar manqurtlarga aylantirishga harakat qilar edi, - deb yozadi u "Turfa ma'noli taqdir" maqolasida. – Holbuki, o'zbek xalqichalik boy va yorqin tarixga ega bo'lgan xalqlar dunyoda ko'p emas. Millatimiz o'z tarixiy ildizlaridan ma'naviy oziq olsa, qaddini tez tiklashi mumkin. Shuni dil-dildan his qilganim uchun 1969- yildan boshlab yigirma yil davomida tarixiy mavzuda ish olib bordim".

"Yulduzli tunlar" romanining ilk nusxasi 1972- yili yozib tamomlandi, asar qo'lyozmasi o'sha yili Yozuvchilar uyushmasida muhokama etilib, yuksak baho oldi va nashrga tavsiya etildi. Biroq ko'zga ko'rinnmas qora kuchlar, baxil g'alamislarning pinhona fitnasi, qarshiligi tufayli roman olti yilcha bosilmay yotdi. Nihoyat, halol, jonkuyar, fidoyi kishilarning madadi, sa'y-harakatlari oqibatida 1978 yili asar "Sharq yulduzi" sahifalarida dunyo yuzini ko'rdi, ko'p o'tmay, alohida kitob bo'lib chiqdi. Qisqa muddat ichida rus tilida ikki bor bosildi, boshqa tillarga tarjima etildi, o'zimizda, Moskva matbuotida yuksak baho oldi, Respublika Davlat mukofoti bilan taqdirlandi.

Turg'unlik yillari "Yulduzli tunlar"ga baho berganda ayrim adabiyotshunoslar roman va uning muallifini ta'qib-u tazyiqlardan asrash maqsadida asardagi shoh va shoir Bobur shaxsiyati va qismatidagi ziddiyatlar ifodasiga alohida urg'u berar; Bobur obrazi tilidan aytilgan: "Neki xatolik, neki gunoh qilgan bo'lsam, hammasining birlamchi sababi mening podshohligimdir", "Menga vafo qilsa, faqat yozgan asarlarim vafo qilmog'i mumkin" degan so'zlarini takror-takror eslatib o'tar edilar.

Ochig'i, o'zbek adabiyotida hozirgacha bu qadar keng qamrovli tarixiy romanlar yaratilmagan



edi. "Yulduzli tunlar"ni ham birga qo'shib oladigan bo'lsak, yuz yildan oshiqroq davr, davrning eng muhim tarixiy hodisalari, Turon, Afg'oniston, Hindiston tarixining g'oyat chigal dramatik voqealari, yuzlab tarixiy shaxslar, davlatlar, tojedorlar, avlodlar almashuvi; o'nlab tarixiy shaxslar, g'alaba va inqirozlar; davr g'oyalari, turli xil e'tiqodlar, oddiy mehnat ahlining ahvol-ruhiyati; har xil millat, turli davrlarga oid udum-tamoyillar; g'oyat katta hudud - turli yurtlarning shahar-u qishloqlari, daryo, o'rmonlari, dalalari, iqlimu muhit - bularning barchasini bor holicha ko'rib, bilib, yurakdan his etib aniq tasvirlash, jonli gavdalantirish oson ish emas!

"Avlodlar dovoni" romani muallifi oldida yana bir mushkul vazifa turardi. Ma'lumki, "Yulduzli tunlar"ning asosiy voqealari yozuvchining o'z ona yurtida bo'lib o'tadi, asarning asosiy personajlari ham shu yurt odamlari. "Avlodlar dovoni"da esa voqealar butunlay hind diyoriga ko'chadi. Bobur umrining so'nggi yillari, Humoyunning jangovor faoliyat Hindistonda kechsa-da, ular o'zlarini bu yurtda begona his etadilar, ona yurt sog'inchi bilan armon-o'kinchda yashab o'tadilar. Akbar esa dilida ota-bobolar aqidalarini e'zozlagani holda, bu yurt, bu elning farzandiga aylanadi, hind hayotiga singib ketadi, hind qizlariga uylanib, hindlar bilan qudaga aylanib ko'plab hindcha udumlarga amal qiladi... Qisqasi "Yulduzli tunlar"da sof o'zbekona milliy ruhda boshlangan tasvir-ifoda "Avlodlar dovoni"da hindcha ruh-koloritning ustuvorligi bilan ajralib turadi. Biroq hindcha ruh-kolorit ustuvor o'rnlarda ham o'zbek adibining dastxati baralla seziladi; o'zbekona nigoh bilan "Ramayana" va "Mahobxorat" eposlari, R.Tagor romanlariga xos hindcha ruh-koloritning qo'shilib-tutashib ketishi oqibati o'laroq asar betakror badiiy qiyofa kasb etadi.

Bu roman juda katta ma'rifiy qimmatga ega. Kuzatishlar shundan dalolat berayotirki, "Avlodlar dovoni" chiqqunga qadar ko'pchilik o'zbek kitobxonni Bobur, Humoyun haqida bir qadar tasavvurga ega bo'lsa ham romanning yana bir bosh qahramoni – jahonning ko'pgina ma'rifatli kishilariga tanish, ular uchun ardoqli bo'lgan, "chinakam daho" siymolar qatorida tilga olinadigan Akbarni yaxshi bilmas ekanlar. Bu roman tufayli u o'z xalqining, bobo yurtining ma'naviy olamiga qaytmoqda. Kitobxon goho ilmiy-tarixiy, aniq hujjatli asar o'qiyotirmi yoki badiiy roman – uning xayolini real hayot haqiqati, chindan bo'lib o'tgan voqealar, aniq tarixiy shaxslar qismati band etadi, barcha voqealarni tarixiy haqiqat sifatida qabul qiladi. Bu tarixiy roman uchun yaxshi fazilat! "Asrlar kitobini o'qiganningiz sari, - deydi muallif, tarix tomonidan yaratilgan dramalar, fojialar, syujetlarni alohida yozuvchining fantaziyasi bilan yaratib bo'lmasligiga ishonch hosil qilasiz. Shu sababli men Bobur, Humoyun va Akbarlarning ko'rgan-kechirganlarini tasvirlar ekanman, o'z fantaziyamdan ko'ra "tarix fantaziyasi"ga, ya'ni chindan sodir bo'lgan voqealarga ko'proq asoslandim"

Inson adabiyotning tasvir predmeti ekan, insonning ruhiyatisiz uni yaxlit, bir butun holatda to'liq tasavvur qilish mumkin emas. Demak, har qanday badiiy asarda, u qachon va qaysi janr, metodda yaratilgan bo'lmasin, inson psixologiyasi u yoki bu tarzda aks etishi tabiiyidir.

Tarixiylik tamoyilining o'zbek romanlarining asosiy mezonlaridan biriga aylanishida tarixiy qahrmon, tarixiy muhit va tarixiy-badiiy talqin "uchligi" muhim omil sifatida ko'zga tashlanadi. Zero, tarixiy asar xalq va jamiyat taraqqiyotida muhim rol o'ynagan mashhr shaxslar hayoti asosida yaratiladi; o'z prototipiga ega bo'lgan tarixiy shaxs hayoti va faoliyatining yozuvchi estetik ideali bilan bog'liq qirralari asarda aks etgan bo'ladi. Bunday romanlarda to'qima obrazlar yoki tarixda o'z prototipiga ega bo'lgan personajlar xarakterini yaratish jarayonida tarixiy voqealarni kitobxon ko'z o'ngida gavdalantirish, ularga milliy ruh bag'ishlash va tarixiy shaxslarni millat qahramoni darajasiga ko'rsatish tamoyili ustuvorlik qiladi.

P.Qodirovning tarixiy romanlarida temuriy hukmdorlar hayotining eng murakkab jihatlari qalamga olingan. Adib temuriylar davlat tizimi va o'sha davrda kechgan siyosiy munosabatlarni to'g'ridan-to'g'ri ifodalash yo'lidan bormaydi. Asarning o'ziga xos tomonlaridan biri shundaki, yozuvchi butun voqealarni bosh qahramonlar sifatida belgilangan Bobur, Humoyun, Akbar nigohi orqali tasvirlaydi. Romanlarda millat hukmdorlarining tarixdagi qismati temuriylar davlatining yemirilish sabablari haqida tasavvur beruvchi omil sifatida tasvirlandi va bu hol romanga o'ziga xos ruh bag'ishladi.

Yangi zamon, mustaqillik adibni ham, romanni ham xalqqa qaytardi. «Yulduzli tunlar» shoh, sarkarda, shoir — benazir inson Zahiriddin Muhammad Boburning yorqin siyimosi mahorat bilan aks ettirilgan to'laqonli va siyimosi badiiy asardir. Asosiysi, jahon tarixi, xususan, O'rta Osiyo va Hindiston tarixida o'chmas iz qoldirgan, markazlashgan davlat tuzib, ko'pdan ko'p xalqlами qirg'inbarot urushlardan saqlata qolgan, murakkab qismatli podshoh, ne-ne jang-u jadallarda mahorat va jasorat ko'rsatgan sarkarda, she'rlaridagi har bir satrda o'z ichki dunyosi, dono porloq



qiyofasi porlab turgan buyuk shoir, har bir so'zidan tarix nafasi keiuvchi „Boburnoma» muallifi hamda dilbar tabiat siymosi bu darajada haqqoniy, teran gavdalantirilgan roman shu vaqtgacha o'zbek adapiyotida ham, jahon adapiyotida ham yaratilmagan edi. Jhon tarixi badiiy adapiyotida Bobur haqida to'g'ri fikrlardan tashqari bir-biriga zid, ba'zan yanglish, xato, noxolis qarashlar yo'q emas edi. Boburning haqqoniy qiyofasini yaratish, badiiy haqiqat imtiyozlari bilan moziy adolatini tiklash tarabi, zamon ehtiyoji va yozuvchining muqaddas burchi edi.

Adabiyotimizda buyuk shoh va shoir hayotining ayrim bosqichlariga bag'ishlangan Oybekning „Bobur”, E. Vohidovning „Kelajakka maktub». B. Boyqobilovnuig „Kun va tun». X. Sultonning „Bobur-noma» singari turli janrdagi asarlari mavjud. „Yulduzli tunlar”da esa Boburning deyarli butun ongli hayoti yaxlit yaratilgan. Adib roman janrining yuksak talablariga amal qilish bilangina kifoyalanmay, janr tabiatini yanada boyitishga munosib hissa qo'shdi. Roman Bobur siymosini tarixiy haqiqatga mos, badiiy jihatdan jozibali tasvirlashi bilan e'tiborli. Humoyun og'ir betob bo'lib yotganida Bobur fatzandiga shunday deydi: *“Sening betoqatligingga men toqat kehiray! Sening shu og 'ir dardingni xudo sendan olib, menga bersin...Bobur umumiy jimlikda Humoyunning boshidan uch marra aylandi-yu:*

— *E, parvardigor! — deb iltijo qildi. — Menki, Boburmen, agar jon berish mumkin bo'lsa, umr-u jonimni Humoyunga qurban qildim! Azroyil mening jonimni olsin-u, xudo Humoyunga shifo bersin!*» Manbalar bu voqeа haqiqatan tarixda ro'y berganini tasdiqlaydi. Humoyun ko'p o'tmay tuzaladi. Bobur qazosi shu voqealarga to'g'ri keladi. Roman ham ko'p o'tmay shu tasvirdan so'ng yakun topadi. Yozuvchi bu singari tarixiy faktlarni e'tirof etish bilangina cheklanmaydi, albatta. Taxayyulni erkin qo'yib, ularga badiiylikning jonli suvini ichiradi. Butun asar davomida qahramonlarni, ularning o'y-kechinmalarini, harakat qilayotgan shart-sharoitlarni. muhitni, tabiatni. hatto olinayotgan nafaslar harorattni. ayni lahzada pardalardan ichkariga yoyilayotgan nur tarovati va hokazolarni shu qadar mahorat bilan badiiy, go'zal tasvirlaydiki, kitobxon asar o'qiyotganini unutib, shu muhitda yashayotgandek his etadi o'zini.

Mana, Boburning podshoh, sarkarda, shoir, muarrix sifatidagi buyuk fazilatlaridan tashqari oddiy bir inson sifatidagi ko'rinishi. Zaharlangan Bobur ruhiyati shunday chiziladi: „*Boshidan o'tgan o'lim dahshati hamon xayolidan nari ketmasdi. Uning joni shuncha vaqt qil uchida osilib turganini o'ylasa, beixtiyor vahmi kelardi. Shu qil uzilsa, o'lim deb ataladigan zulmat qa'rige qulab tushishini ikki kun davomida muttasil his qilish unda yashash istagini behad kuchaytirib yuborgan edi. Hayotning bir lahzasi, bir uchquni dunyoning barcha boyliklari-yu, toj-u taxtlaridan ham aziz ekanligi unga endi astoydil sezildi.*» Qahramon ruhiyatini teran, jonli, samimiy ochish o'z-o'zidan bo'ladijan ish emas. Buning uchun yozuvchi shunday his- tuyg'ularni o'z qalbidan o'tkaza olishi kerak. Pirimqul Qodirov o'zi aytganidek, adib „tarixiy shaxslarning ichki dunyosiga o'z ichki dunyosi orqali yol topadi». Mustaqillik davriga kelib, „Yulduzli tvmlar”dek tarixiy asarning qadr-qimmati, ahamiyati yanada oshdi. Roman Vatan, millat, ulug' ota-bobolarimizga mehr-muhabbatini yanada e'zozlashga undaydi.

Foydalilanigan adapiyotlar:

1. Zahiriddin Muhammad Bobur «Boburnoma» Toshkent «Yulduzcha», 1990-yil.
2. Pirimqul Qodirov «Yulduzli tunlar» Toshkent, «O'zbekiston» 1990- yil.
3. Nuriddinov. M. «Boburiylar sulolasi» Toshkent, «Fan» 1994- yil.
4. Nurmatov. M. «Yetuk ijodning shu`lasi», «Til va adapiyot ta'limi» 1993- yil, 1-son, 6-bet.
5. Qorayeva. B. «Boburnoma»da milliy ruh va qadriyatlarning aks ettirilishi, «TAT» 1996-yil, 5-6-son.
6. Qudratullayev.X. «Himmati arjumandi Bobur yoki shohning sakkiz xislati» «Tafakkur», 1996-yil, 3-son.

**"ЎЗБЕКИСТОНДА ИЛМИЙ-АМАЛИЙ ТАДҚИҚОТЛАР"
МАВЗУСИДАГИ РЕСПУБЛИКА 26-КЎП ТАРМОҚЛИ
ИЛМИЙ МАСОФАВИЙ ОНЛАЙН КОНФЕРЕНЦИЯ
МАТЕРИАЛЛАРИ**

(8-қисм)

Масъул мухаррир: Файзиев Шоҳруд Фармонович
Мусаҳҳиҳ: Файзиев Фарруҳ Фармонович
Саҳифаловчи: Шахрам Файзиев

Эълон қилиш муддати: 31.03.2021

Контакт редакций научных журналов. tadqiqot.uz
ООО Tadqiqot, город Ташкент,
улица Амира Темура пр.1, дом-2.
Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; Email: info@tadqiqot.uz
Тел: (+998-94) 404-0000

Editorial staff of the journals of tadqiqot.uz
Tadqiqot LLC The city of Tashkent,
Amir Temur Street pr.1, House 2.
Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; Email: info@tadqiqot.uz
Phone: (+998-94) 404-0000